



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 2

2026

SA'DIDDIN HAMAVIYNING TASAVVUF GNOSEOLOGIYASI: MUKOSHAF VA MUSHOHADA TUSHUNCHALARINING ALOQADORLIGI

Rajabov Alisher Shavkatovich

Buxoro davlat pedagogika instituti, mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya

Mazkur maqolada o'rta asrlar yashagan tasavvuf falsafasining yirik nazariyotchi vakillaridan biri bo'lgan, "Vahdat ul-vujud" ta'limotining rivojiga munosib hissa qo'shgan Sa'diddin Hamaviyning tasavvuf gnoseologiyasida muhim tushunchalar sifatida tilga olingan mukoshafa va mushohadaga oid qarashlari tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Sa'diddin Hamaviy, tasavvuf, irfon, sayru suluk, haqiqat ilmi, muomala ilmi, mushohada, muxodara, muroqaba, vahdat ul-vujud falsafasi, amaliy tasavvuf, nazariy tasavvuf, shariat, tariqat, ma'rifat, haqiqat.

ГНОСЕОЛОГИЯ СУФИЗМА СА'ДИДДИНА ХАМАВИ: ВЗАИМОСВЯЗЬ ПОНЯТИЙ МУКАШАФА И МУШАХАДА

Раджабов Алишер Шавкатович

Бухарский государственный педагогический институт, независимый исследователь

Аннотация

В данной статье анализируются взгляды Садиддина Хамави, одного из крупнейших теоретиков суфийской философии Средневековья, внесшего достойный вклад в развитие учения "Вахдат аль-вуджуд," на мукашафа и мушахада - понятия, которые рассматриваются как ключевые в суфийской гносеологии.

Ключевые слова: Садиддин Хамави, суфизм, ирфан, сайр ва сулук, наука об истине, наука о правилах поведения, мушахада, мухадара, муракаба, философия вахдат аль-вуджуд, практический суфизм, теоретический суфизм, шариат, тарикат, марифат, хакикат.

THE SUFI GNOSEOLOGY OF SA'DIDDIN HAMAVI: THE INTERRELATION OF THE CONCEPTS OF MUKĀSHAF AND MUSHĀHADA

Rajabov Alisher Shavkatovich

Bukhara State Pedagogical Institute, Independent Researcher

Abstract

This article analyzes the views of Sa'diddin Hamawi - a major medieval theorist of Sufi philosophy who made a significant contribution to the development of the "Wahdat al-Wujud" (Unity of Being) doctrine - regarding mukashafa (unveiling) and mushahada (witnessing), which are considered important concepts in Sufi epistemology.

Keywords: Sa'diddin Hamawi, Sufism, irfan, "sayr wa suluk", science of truth, science of conduct, "mushahada", "muhadara", muraqaba.

Islomiy irfon va tasavvuf Haq va haqiqatni bilishda, ya'ni butun borliq haqida intuitiv va mushohadaviy bilim (ma'rifat) hosil qilishning asosiy yo'li sifatida "sayr va suluk"ni nazarda tutadi. Ushbu ta'rifga diqqat bilan razm solinsa, tasavvufiy irfon ikki tarkibiy qismni

o'z ichiga olishi namoyon bo'ladi:

1) amaliy qism – uni so'fiylar ilmi tariqat ("tariqat ilmi"), ilm-i suluk ("suluk ilmi"), ilm-i tasavvuf ("tasavvuf ilmi"), ilm-i muomalot-i qalbiy ("qalb muomalalari ilmi") va ilm-i manozil al-oxirat ("oxirat manzillari ilmi") deb ataydilar;

2) epistemologik (ma'rifiy) qism – u ilm-i haqiqat ("haqiqat ilmi"), ilm-i haqoyiq ("haqiqatlar ilmi"), ilm-i mukoshafa ("kashf ilmi"), ilm-i mushohada ("mushohada ilmi") va ilm billoh ("Alloh haqidagi ilm") kabi nomlar bilan ifodalanadi.

"Kashf" "pardalar ko'tarilganidan so'ng sirli narsaning zohir bo'lishi" yoki "ko'zga ko'rinmas haqiqatlarni mukoshafa (mushohada) orqali idrok etish" demakdir. "Mukoshafa" ilmining asosiy maqsadi Alloh haqida ma'rifat hosil qilish, inson, borliq va Alloh to'g'risidagi aql, ko'rish va mulohaza orqali anglab bo'lmaydigan bilimlarni qalb orqali egallashdir. G'azzoliy qalb ilmini "mukoshafa ilmi" (tahaqquq), insonning amallarini ibodat, solih amallar va axloq nuqtayi nazaridan o'rganadigan ilmni esa "xulq ilmi" (taxalluq) deb atagan. Mukoshafa – bu tana hijoblari va jismoniy hislar yo'qolganidan so'ng ruh olamini mushohada qilishdir. Mushohada tushunchasi arab tilidan olingan bo'lib, biror narsani ko'z bilan ko'rish, ilohiy sirlar va tajalliylarni kuzatish, Haq taoloni, ilohiy koinotni tafakkur qilish, Allohga yaqinlik darajasidir. So'fiylar fikricha, uning boshlang'ich darajasi "muhodara", ya'ni ilmulyaqin bo'lsa, "mukoshafa" uning eng yuqori cho'qqisi bo'lib, u jazava holatida vujudni kuzatish, ya'ni Haq taologa yaqinlashish darajasidir. Boshqa bir mazmunda mushohada - Haq taoloning qalbdagi hozir bo'lishidir. Inson mushohada holatida o'zligini unutadi, Allohni tanish uni o'zini unutish (mahv) holatiga olib keladi. Abu Bakr al-Qattoniy tasavvuf haqida yaxlit tasavvur berish va uni boshqa narsa bilan adashtirib yubormaslik uchun "Tasavvuf – bu quvonch va mushohadadir (safo va mushohada)"-mazmunidagi ta'rifni ilgari surgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI (LITERATURE REVIEW). Mazkur mavzuga oid ma'lumotlar Sa'diddin Hamaviyning "Sakinat us-solihiyn fi ma'rifati qavoidilyaqiyn", "Mahbub ul-muhibiyn va matlab ul-vosiliyn" (Muhiblarning mahbubi va vasl istovchilarning matlabi), "Al-misbah fit-tasavvuf", "Bahr ul-maoniyn" (Ma'nolar ummoni), "Risola dar tasavvuf" (Tasavvuf haqida risola) kabi asarlarida batafsil bayon qilingan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI. (RESEARCH METHODOLOGY). Tadqiqotda analiz, sintez, tarixiylik, sinergetika va germeneytika, vorisiylik, qiyosiy tahlil, usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR. (ANALYSIS AND RESULTS). Tasavvuf ta'limoti va falsafasining yirik namoyandalaridan biri bo'lgan mashhur mutasavvif Sa'diddin Hamaviyning gnosologik qarashlarida ham Haq va haqiqatni bilish mavzusi markaziy o'rinni egallagan bo'lib, qator asarlarida mazkur tushunchalarga maxsus e'tibor qaratgan. Asar to'rt bobdan iborat. Har bir bob bir payg'ambarga nisbat berilgan. Jumladan, to'rt bobdan iborat bo'lgan "Sakinat us-solihiyn fi ma'rifati qavoidilyaqiyn" asarining birinchi bobida insonning amallari, e'tiqodi, so'zlari, ibodatlarida adolatli bo'lishi va Haq taoloning ma'rifati kabi masalalar tahlil qilingan. Shuningdek, muridlarga zohir-botin, mo'minning mo'min ustidagi olti haqqi, ilmi muomala va ilmi mukoshafa haqida o'gitlarga keng o'rin ajratilgan.

Hamaviyning asarlari asosiy chizgilari bilan birga tadqiq etilganda uning tasavvufiy qarashlarini asosan ikki qismga, ya'ni amaliy va nazariy bo'lib yoritganligi ko'rinadi. Zero, mutasavvif tasavvufni "muomala ilmi" va "mukoshafa ilmi" deb ikki toifaga tasnif qilgan. Muomala ilmini insonga yaxshi va yomon amallarni o'rganib, yaxshisiga ergashish va yomonligidan qochish imkonini beruvchi ilm, mukoshafa ilmini esa Haq taolo bandaning qalbidagi pardani ko'tarib, olami g'aybdan o'ziga ehson qilgan, ichida shubha bo'lmagan va barcha ilmlarni qamrab olgan kulliy ilm shaklida talqin qilgan. Hamaviyning fikricha, tasavvuf yo'lga kirishning uchta sharti bor. Birinchisi, tavhid va shariat ilmini egallash. Bundan

mahrum bo'lganlar haqiqiy tasavvufdan ham mahrum bo'ladilar. Tolibning so'fiy bo'lishi uchun bajarishi kerak bo'lgan ikkinchi shart - tariqatga bog'lanib, suluk qilishdir. Hamaviyning tariqatdan maqsadi ta'sis etilgan shaklda shayxi, vaqfi, xonaqohi bo'lgan muassasa emas. Uning nazdida tariqat Haq Taolaga olib boruvchi har qanday yo'ldir. Bu yo'lda ilm solikning yoniga olgan ozuqasidir. Mutasavvif tolibning so'fiy bo'lishi uchun bajarishi lozim bo'lgan uchinchi shart esa haqiqat ilmini talab qilishdir. Haqiqat ilmi g'ayb va shahodat ilmi bo'lib, u kasb va amalga suyanish bilan birga, Alloh tanlangan bandalariga in'om etgan mavhibadir. Bu ilm aql, sezgi a'zolari va xabar-i sodiq orqali o'rganilganidek, ilhom, basirat, futuhot, farosat, xavotir, tush, mushohada, muhodara, mukoshafa, tajalli, yaqin va vorid kabi so'fiylarga xos yo'llar bilan ham hosil qilinadi. Hamaviy haqiqat ilmini mukoshafa ilmi deb ataydi va "nur" deb ta'riflaydi. Chunki uningcha, bu ilm qalb ustidagi zulmat pardalarining ko'tarilishi natijasida hosil bo'ladi. Mukoshafa va mushohada so'fiylar ko'z bilan ko'rib, aql bilan idrok qilinmaydigan haqiqatlarni ma'naviy ko'rish va bilish ma'nosida qo'llagan tushunchalardan biridir. Hamaviy ruhiy tajribalar orasida eng ko'p mukoshafaga e'tibor qaratadi. Uningcha, mukoshafa qalbning malakut olamidagi haqiqatlarni ko'rishidir. Mushohada esa mukoshafadan oldingi bosqich bo'lib, shahodat olamidan g'ayb olamini kuzatishdir. Mukoshafa va mushohada sodir bo'lishi uchun qalbdagi shubhalar yo'qolishi kerak. Bu esa, faqat mustahkam mujohada bilangina amalga oshadi. Mujohada so'fiyning nafs bilan kurashib, hirs, hasad, kin, adovat, mol-dunyo va mansabga bo'lgan muhabbatdan qutulishi va dunyoda yo'qotadigan hech narsasi bo'lmagan kishiga aylanishidir. So'fiy o'z mujohadasida muvaffaqiyat qozonsa, mushohada maqomiga ko'tariladi. Agar mushohadada ham muvaffaqiyat qozonsa, unga mukoshafa eshiklari ochiladi. Mukoshafa va mushohada mujohadaning mevasidir. Mujohada olovdur. Mushohada va mukoshafa oldidagi to'siqlarni yondiradi. Bu to'siqlarning boshida so'fiyning nafi uchun avvalo uni yoqib yuboradi. Mushohada nurdir, mukoshafa esa nurun ala nurdir. Hamaviy kashfiy bilimning mavhum va subyektiv ekanligini ta'kidlab, mukoshafa va mushohada natijasida qo'lga kiritilgan bilim hukm chiqara olmasligini uqtirgan. Uning fikricha, kashfiy bilim haqiqiy ma'lumot sifatida qabul qilinishi uchun bir qator mezonlarga javob berishi kerak. Bularning boshida mukoshafa bilan olingan bilimning Qur'on va sunnatga zid kelmasligi turadi. Zero, uningcha, nubuvvat va valoyat, ya'ni vahiy bilan kashfiy bilimning manbai yagonadir. Ammo kashfiy bilim saqlanmagan holda vahiy saqlanib qolgan. Shunday qilib, vahiyga zid bo'lgan bilim kashfiy bilim bo'lishi mumkin emas. Hamaviyning fikricha, mushohada va mukoshafaning uch darajasi bor. Birinchisi, muridning mukoshafasi/mushohadasini bo'lib, o'z qalбини mushohada qilishidir. Ikkinchisi, Haq taolodan o'zga hech bir narsaning muhabbatini qalblarida jo qilmagan siddiqlarning mukoshafasi/mushohadasidir. Uchinchisi esa, Alloh taolaga yaqin bo'lgan (muqarrab) bandalarning mushohadasini/mukoshafasidir.

Xulosa. Yuqorida bildirilgan fikrlar va argumentlar asosida quyidagi mazmundagi xulosalarni ilgari surish maqsadga muvofiqdir:

- Sa'diddin Hamaviyning tasavvuf gnoseologiyasiga oid qarashlarida Haq va haqiqatni bilish muammolari qator irfoniy tushunchalar asosida tahlil qilingan bo'lsada, ular o'rtasida mukoshafa va mushohada tushunchalari maxsus o'rinni egallagan;
- Mukoshafa va mushohadaning ta'riflarini ishlab chiqish bilan birga, ularga olib olib boradigan yo'llar va uslublarni belgilab bergan;
- Mutasavvif mukoshafa va mushohada tushunchalariga qator ma'no va mazmun yuklagan hamda mazkur tushunchalarning o'ziga xos tasnifini ishlab chiqqan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Sa'deddin Hammûyi. Babru'l-Meani, Süleymaniye Kütüphanesi, Fazıl Ahmed Paşa, no:

- 706, vr. 83b.
2. Саъдиддин Ҳамавий. Сакинат ус-солиҳийн фи маърифати қавоидил-яқийн. Кутубхонаи Мажлиси Шўрои миллий, №: 10494, vr. 6a-9a.
 3. Словарь исламских терминов. – Казань: Хузур-Спокойствие, 2014. – 512 с.
 4. Хасан Камилъ Йылмаз, Тасаввуф и тарикаты. Перевод с турецкого. М.: ООО “Издательская группа “САД2, 2007. – С. 191